



Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературы – Language and literature teaching» (e-mail:tilvaadabiyotuz@gmail.com) <https://oak.uz/pages/4802>

**2025
YIL**

**“Atrof-muhitni asrash va “yashil”
iqtisodiyot yili” deb e’lon qilindi**





Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

Bosh muharrir

Nargiza BERDIYEVA

Tahrir hay'ati:

Nizomiddin Mahmudov
Yorqinjon Odilov
Jabbor Eshonqulov
Baxtiyor Daniyarov
Abdurahim Nosirov
To'liqin Saydaliyev
Barno Buranova
Zulxumor Mirzayeva
Qozoqboy Yo'ldoshev
Bahodir Jovliyev
Salima Jumayeva
Qayum Baymirov
Manzar Abdulxayrov
Alijon Safarov
Husniddin Norqulov
Odiljon Boynazarov
Madina Nuriddinova
Latifa Xudayqulova
Barno Kadirova
Nargiza Mirzayeva
Guli Shukurova
To'maris Butunbayeva
Okila Turakulova
Yuldosh Raxmatov
Ramziddin Abdusatorov
Feruza Manukyan
Gulchexra Keldiyorova
Gulsanam Xolikulova
Komiljon Qarshiyev
Svetlana Umirova

Axborot hamkorimiz:



Muharrirlar:

Bibimaryam RAHMONOVA
Shabnam G'ANIYEVA
Bonu DO'SMATOVA

Sahifalovchi:

Mahliyo ABDUQODIROVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.
e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com



Ilmiy-metodik elektron jurnal

M U N D A R I J A

Dolzarb mavzu

Ibodatxon Rustamova. Hikoyada Rovi funktsiyasi.....3
Saodat Kambarova. Adabiyot darslarida adabiy-nazariy tushunchalarni o'qitish mezonlari.....5
Nodiraxon Erkaboyeva, Zokirjon Isaqov. Darsliklar – hayotiy ta'lim berish vositasi.....9
Jamila Djumabayeva, Dilnoza Kurbonova. Integrating the 4Cs into EFL classrooms.....11

Tilshunoslik

Feruza Abduraximova. O'zbek tilida so'z yasashining taraqqiyot yo'li.....17
Muhtabar Sanoyeva. Matnni yaratishga yo'naltirilgan tizimli grammatik topshiriqlar ustida ishlash.....19
Javlon Ibragimov. Nolisaniy vositalarning so'roq gaplarda namoyon bo'lishi.....22
Madixabonu Pardayeva. Abdulla Qodiriy hajviyalarida -chi affiksi bilan yasalgan so'zlar tahlili.....25
Alisher Parmonov. O'zbek va rus tillarida olam lisoniy manzarasining kinoyaviy ifodasi.....27
Ikram Xudaynazarov. Akademik yozuv va uning rivojlanishi.....30

Adabiyotshunoslik

Zilola Eshanova. Halima Xudoyberdiyeva ijodida baxshiyona....34
Shaxnoza Norkulova. Sayyid Qosimiy

"Haqiqatnoma" sining mazmuniy halqasi va tarbiyaviy ahamiyati.....37
Gulhayo Haydarova. XX asr g'azaliyotida poetika muammolari.....39
Go'zal Atabayeva. Omon Muxtorning obraz yaratish mahorati.....43
Akram Hamdamov. Hasad motivi va hasad muammosi.....45
Laylo To'rayeva. Asad Gulzoda she'riyatida mehnatkash xalq obrazi va ularga munosabat ifodasi.....47
Fanuzo Adilova. Xayriddin Sulton qissalarida obrazlar tabiati tahlili.....50
Нигора Каримова, Юлдузхон Атакулова. Влияние народной прозы на творческий почерк В. Распутина и Х. Дустмухаммада.....52
Татьяна Половинкина. Художественное своеобразие сборника А. Волоса «Рассказы из пиалы»55
Masuda Takhirova. Truncated constructions in the text of fictional essay "Salyr-gul".....57

Ilg'or pedagogik texnologiyalar

Farxod Xalilov, Nigoraxon Akbarova. Yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida talabalarning fuqarolik savodxonligini rivojlantirish va tarbiya borasida sharq allomalarining o'g'itlari.....60
Ibodulla Uzakov. Ta'limda virtual pedagogikaning o'rni.....62
Nuriddin Esanov, Zarina Samatova. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida tanqidiy va kreativ fikrlashni

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 338/6-sonli qarori bilan Filologiya, Pedagogika hamda Psixologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrdir. <https://oak.uz/pages/4802>

shakllantirishning samarali pedagogik texnologiyalari.....	64
Go'zalxon Yoqubjonova. Boshlang'ich sinf darslarini integratsiyalashgan holda tashkil etish.....	66
Maftuna Toshtemirova. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kooperatsiyasi (hamkorlik) kompetentsiyasi: komandada ishlash ko'nikmalari.....	68
Наргиза Ходжаева. Современные методы и приемы формирования критического мышления у студентов-филологов.....	70
Сабина Смирнова. Коммуникативная компетенция и критерии ее сформированности у будущих преподавателей русского языка и литературы.....	73
Валижон Садиев. Модель совершенствования педагогических условий развития патриотических качеств учащихся в условиях трансформации.....	75
Дмитрий Пупонин. Методическая организация занятия по изучению творчества В. Пелевина с использованием технологии развития критического мышления.....	80
Дилафруз Садикова. Перспективы внедрения инновационных технологий в развитие системы образования.....	82
Юлия Матенова. Символика заглавия повести Э.-Э. Шмитта «Дети Ноя».....	84
Safiya Sadriddinzoda. Semantic field of religious lexicology of russian language.....	86
Gavhar Salomova. Features of abbreviations in the english language.....	88

Tadqiqot

Nodira Sanoyeva. O'rta maktab ona tili darsliklarida berilgan grammatik bilimlarning tavsifi.....	91
Dildora Nizomiddinova, Mahfuza Ahmadjonova. Tarixiy asar "Boburnoma"da toponimlar talqini.....	93
Zarina Saidova. Ibn Sino Sharq va G'arb yozuvchilarining asarlarida.....	96
Mahzuna Qodiriy. Abdulla Qodiriyning " O'tkan kunlar" asarida hikmatli so'zlarning qo'llanishi.....	98
Nilufar Najmiddinova. O'zbek tilining izohli lug'atida haqorat so'zlarning berilishi hamda ularning lingvistik ekspertiza o'tkazishdagi o'rni.....	100
Gulmira Zulaypoyeva. Iqbol Mirzo idiosstilida xiazm.....	103
Farida Xakimova. Shodmonqul Salomning "Odam bo'l" qatrasi badiiyati.....	104
Muhayyo Azimova. "Giperbola va meyozi konseptual semantikasi" fonomorfemik, leks(em) ik va frazemik verbalizatorlari struktural turlarining tipologiyasi.....	106
Farida Abduraximova. O'zbek adabiyotida "taqdir"	

konsepti.....	108
Dilorom Hayitboyeva. Ubaydiy ijodining o'rganilishiga doir.....	110
Gavhar Jo'rayeva. A'zam O'ktam ijodida o'ziga xoslik.....	113
Shaxnoza Yunusova. Reklama matnlarida gap qurilishi.....	115
Nilufar Saidova. Reklama matnlarining tarjima jarayonidagi stilistik xususiyatlari va ularning o'zaro ta'siri.....	117
Oqiljon Mavlonov, Shohruxbek Jumaboyev. Ko'hkan naqbzanim yo naqbkkan yoxud xamiri moyai jismingdin ortqonni qazo.....	121
Zulfiya Fayzullayeva. Publitsistning til birliklaridan foydalanish mahorati.....	124
Gulrux Bekbayeva. "Ezgulik" konseptining badiiy matndagi pragmatik talqini.....	127
Zulayxo Nishanova. Ispan tilini o'rganish jarayonida madaniyatning roli: lingvistik va antropologik asoslar.....	130
Dilorom Xurramova. O'zbek va koreys tillaridagi taqlid so'zlarning struktur xususiyatlari.....	133
Shohista Tojiboyeva. "Informatsion-analitik kompetentlik" tushunchasining mazmuni hamda ta'limdagi o'rni.....	136
Feruza Jalolova. Pedagog xodimlarda rahbarlik qobiliyatini rivojlantirish bosqichlarining xalqaro tajribasi.....	138
Shoxidaxon Botirova. Akvarelist manzarachi rassomlar.....	141
Фаррух Сафаров. Особенности идиоматичности в словообразовательных структурах.....	143
Руслан Сариев. Концепция времени и пространства в романе Евгения Водолазкина «Оправдание острова».....	146
Лариса Половина. Роль грамматических вопросов при синтаксическом анализе предложения.....	148
Мавлюда Рахманова. Синтаксическая синонимия в современном русском языке (на материале ссп, спп и бсп).....	151
Nazokat Davletyarova. Solutions to the problems encountered in the translation of scientific texts with international students.....	153
Sabokhon Sharipova. Linguistic and extralinguistic factors in neologisms and their use in media discourse.....	156

Pedagogika

Sojida Najiyeva. Kredit-modul ta'lim tizimining o'ziga xosligi.....	158
Farxod Tashpulatov. Talaba yoshlarga yugurib kelib uzunlikka sakrash texnikasi va taktikasini o'rgatish.....	160
Nuriddin Sangirov. Talaba-yoshlarga voleybol	

texnikasi va taktikasini o'rgatish usullarini takomillashtirish.....	162
Axmad Muxametov. Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni sog'lomlashtirish mashg'ulotlarida yuklamalarni me'yorlashtirishning ilmiy-metodik asoslari.....	165
Faxriddin Karimov. O'rta yoshdagilarning jismoniy sifatlarini hisobga olgan holda sog'lomlashtiruvchi mashqlar jamlanmasini ishlab chiqish.....	168
Leyla Seydaliyeva, Nurxon Xushvakov, Sabohon Abdullayeva. Ommaviy sport turlarida jismoniy mashqlarning sog'lomlashtiruvchi ta'siri.....	170
Maxmud Babayarov, Mehrinoz Toshboltayeva. Sport sohasida perifriza vositasida madaniy axborot yetkazish.....	173
Rokiya Mavlyanova. Ta'lim-tarbiyani tashkil etishda sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari.....	176
Musharraf Sultanova. Badiiy gimnastika mashqlari yordamida talaba qizlarni egiluvchanligini oshirish va takomillashtirish.....	178
Munisa Toshboyeva. Paradyudoda texnik-taktik harakatlarga tezkor o'rgatish usullarini takomillashtirish.....	181
Axror Djabbarov. Biomexanik tahlil asosida yadro itqitish texnikasini takomillashtirish samaradorligi...	184
Ilxam Sahaniyazov. Hujum taktik harakatlarini amalga oshirishda yosh futbolchilar jismoniy holatlarining ahamiyati.....	187
Tokhira Islamova. Educational technologies are creating new opportunities in teaching.....	190

Psixologiya

Zilola Turdiyeva. N.Eshonqulning "Tun panjaralari" qissasida psixologizm muammolari.....	191
Shohista Tohirjonova . Tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlaridan biri: psixolingvistikada tadqiqot olib borish muammolari.....	195
Gulbahor Kuldashaeva. Zo'ravonlikdan jabrlangan ayollar uchun muhofaza va yordam xizmatlarining o'ziga xos xususiyatlari.....	197
Gulnoza Tulyaganova. Shaxsning individual imkoniyatlarini rivojlantirishda psixologik yondashuv.....	199
Abdulhaq Abdulhayev. O'smirlar va ota-ona	

o'rtasidagi munosabatlar psixologiyasi: yechimlar va takliflar.....	201
Xolida Ubaydullayeva. Yuridik diskursning dolzarbligi.....	203
Muxlisa Sheraliyeva. Yoshlar orasida slenglardan foydalanishning psixologik xususiyatlari.....	206

Kichik tadqiqot

Musharraf Abdulxayeva. Bo'lajak o'qituvchilarda yozma nutqni rivojlantirish usullari.....	208
Dilafro'z Ziyadullayeva. Vatan va millat obrazi - yozuvchi badiiy niyati sifatida.....	209
Farhod Qiyomov. Sa'diy Sheroziy—sharq adabiyotining yirik vakili.....	211
Najibullo Sayfullayev, Shahnoza Mirzayeva. O'zbek tilida frazeologik birikmalarning qo'llanilishi.....	213
Sadoqat Ergashova. Ijodkorning ramz qo'llash mahorati.....	215
Nigora Rahimova. Jarohatni davolashda ishlatiladigan dorivor o'simliklarning ingliz va o'zbek tilida semantik xususiyati.....	217
Sayyora Hojiyeva. Anvar Obidjon asarlarida xalqona ruh tasviri.....	219
O. F. Achilova. Muloqot matnida maqollarni faollashtiruvchi omillar.....	221
Сабина Юлдашева. Семантическая классификация адвербиальных фразеологических единиц в русском языке.....	223
Зухро Хамраева. Обоснование технологии физического совершенствования студентов средствами занятий бадминтоном.....	225
Zahro Islomova. Axiological lexicon in uzbek and english languages.....	228
Elbek Eshmuminov. Hemingway's contributions to Lost Generation.....	230
O'tkir Pardayev. Hemingway and the Power of Names: An Onomastic Approach to His Fiction.....	232
Sevinch Bobokholova. The importance of reading materials in the development of writing competency.....	234
Sevinch Muradulloyeva. Effective methods for teaching english speaking skills to adults.....	237
Mukhabbat Turgunboyeva, Mukhabbat Yusupova. The role of modern corpus linguistics technologies in developing esl students' speaking skills.....	239

yozma ishlarini baholash orqali yordam berishlari lozim. Yozma nutq mashg'ulotlarida o'qituvchilarning yo'nalishlari va tavsiyalari talabalar uchun muhimdir.

Turli formatlarda yozish: talabalar turli formatlarda, masalan, maqolalar, amaliyot bo'yicha hisobotlar yoki rasmiy xatlar yozishni o'rganishlari kerak. Har bir formatning o'ziga xos talab va uslublari mavjud. Bu esa ularning yozma nutq ko'nikmalarini kengaytiradi.

O'qituvchilar yozma nutqni rivojlantirish uchun muayyan yozma nutq mashqlarini qo'llashlari kerak. Masalan, talabalar uchun esselar, tadqiqot hisobotlari va hikoya yozish bo'yicha topshiriqlar berish juda samarali usul hisoblanadi. O'qituvchilar yozma nutq bo'yicha seminarlar tashkil etishlari, bu esa talabalarning ko'nikmalarini oshirish imkonini beradi.

Bundan tashqari, onlayn platformalarda yozma nutq bo'yicha kurslar o'tkazish, talabalarga qiziqarli va interaktiv tarzda yozuv ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Onlayn resurslar yordamida talabalarning yozma nutqni baholash va takomillashtirish mumkin.

Yozma nutqni rivojlantirish usullari ta'lim jarayonida katta ahamiyatga ega. Bu usullar nafaqat yozuv ko'nikmalarini, balki mantiqiy fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini ham oshiradi. Talabalar o'z yozma nutqini rivojlantirish uchun yuqoridagi usullarni qo'llash orqali muvaffaqiyatga erishishlari mumkin. Kelajakda bu ko'nikmalar talabalarning kelgusi hayotida ham ulkan ahamiyatga ega bo'ladi, chunki yozma nutq bugungi kunda jamiyatda muvaffaqiyatning va o'z kasbining yetuk mutaxasisi bo'lishidagi asosiy omillaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Kohler, T. (2018). *Developing Writing Skills: A Guide for Students*. New York: Academic Press.
- Brown, H. D. (2007). *Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy*. New York: Pearson Education.
- Wiggins, G., & McTighe, J. (2005). *Understanding by Design*. Alexandria, VA: ASCD.
- Flower, L., & Hayes, J. R. (1981). "A Cognitive Process Theory of Writing." *College Composition and Communication*, 32(4), 365-387.
- Graham, S., & Perin, D. (2007). "A Meta-Analysis of Writing Instruction for Students in Grades 4-12." *Journal of Educational Psychology*, 99(3), 445-476.
- Raymond, J. (2019). *Creative Writing for Dummies*. Hoboken, NJ: Wiley.
- Hyland, K. (2003). *Genre and Second Language Writing*. Ann Arbor: University of Michigan Press.
- Purdue University Online Writing Lab (OWL). (n.d.). Retrieved from <https://owl.purdue.edu/>
- Kellogg, R. T. (2008). "Training Writing Skills: A Cognitive Developmental Perspective." *Journal of Writing Research*, 1(1), 1-26.
- Silva, T. (1993). "Toward an Understanding of the Interlanguage Writing of ESL Students." *TESOL Quarterly*, 27(4), 657-677.

Dilafruz ZIYADULLAYEVA,
CHDPU o'qituvchisi

VATAN VA MILLAT OBRAZI – YOZUVCHI BADIY NIYATI SIFATIDA

Annotatsiya: maqolada Xurshid Davronning "Sohibqiron nabirasi" qissasida "vatan" va "millat obrazining tasvirlanishida muallif badiiy niyatining ifodalanishi tahlil etilgan. Bunda tarixiy shaxs va badiiy to'qima obrazlarning muallif niyatini ochib berishiga xizmat qilishi yoritilgan.

Kalit so'zlar: *Vatan, millat, badiiy niyat, tarix, haqqoniylik, qadriyat, qissa, ma'naviyat, ajdod, avlod*

Аннотация: в статье анализируется выражение художественного замысла автора в изображении образа "Родины" и "нации" в рассказе Хуршида Даврона "Сахибкиран внук". В нем подчеркивается, что историческая личность и художественная ткань служат для раскрытия авторского замысла персонажей.

Ключевые слова: *родина, нация, художественный замысел, история, правдивость, ценность, повествование, духовность, предок, поколение.*

Annotation: the article analyzes the expression of author's artistic intention in the description of the image of the "homeland" and "nation" in the story "The Holy grandson" of Khurshid Davron. It highlights the fact that the historical person and the Badi tissue serve to reveal the author's intention of the images.

Key words: *homeland, nation, artistic intention, history, truthfulness, value, short story, spirituality, ancestor, generation*

So'nggi yillarda jahonda sodir bo'layotgan o'zgarishlar nafaqat inson ongi, balki umuminsoniy qadriyatlarga ham ta'sir qilmoqda. Globallashuv vaqtida o'z tarixiga, o'z qadriyatlariga ega millat ommaviy madaniyatga ko'r-ko'rona ergashib ketavermaydi. Zero Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek "Milliy tarixni milliy ruh

bilan yaratish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ahamiyati bo'lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o'rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur" (Sh.Mirziyoyev: "Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak". Aniq.uz sayti)

Prezidentimizning bu fikrlaridan ham bilishimiz mumkinki xalq o'zligini, o'z qadriyatlarini, tarixini bilsa, ajdodlari haqida to'g'ri tasavvurga ega bo'lsagina yot fikrlarga ishonib, unga ergashib ketavermaydi.

Inson ma'naviyatini yuksaltirishda badiiy adabiyotning o'rni beqiyosdir. Yuqorida ta'kidlaganimiz, ommaviy madaniyat zararidan himoyalanihimizda ajdodlarga munosib avlod bo'lishimizda adabiyot bizga ko'makchidir. Zero muayyan ijodkor o'z millatining, davrining farzandi o'laroq qalam tebratar ekan, o'z xalqi dardiga, ijtimoiy muammolariga yechim topishni, xalq saodati uchun yonib yozishni bosh ijodiy konsepsiyasi sifatida tanlashi lozim. Ana shunday jonkuyarmijodkorlardan biri Xurshid Davrondir

Shoir ijodini tahlil qilganimizda mavzu ko'lami kengligi, obrazlar berakrorligi janrlar xilma-xilligi, tarix haqiqatini yoritish maqsadi jihatidan boshqa ijodkorlardan farq qilishini kuzatamiz. Masalan, adib ijodida Vatanga bo'lgan muhabbat, ajdodlar ruhiga bo'lgan hurmat, o'z yurti tarixidan faxrlanish, umuminsoniylik mavzularini badiiy ifodalashga bag'ishlangan ko'plab asarlarni uchratamiz.

Xurshid Davron 90-yillardan e'tiboran ko'proq nasrda ijod eta boshladi. Buni birinchidan, ijodkor barcha adabiy tur janrlarida baravar qalam tebrata olish salohiyati, ikkinchidan, nasr va dramaturgiya imkoniyatlaridan ham foydalanish istagi, qolaversa, ba'zi mavzular lirikaga sig'masligi kabi jihatlar nuqtai nazaridan asoslash mumkin. Bu jihatlar umumiy bir nuqtada, ya'ni yozuvchi badiiy niyati degan tushuncha atrofida birlashadi. Ijodkorning tasavvur olami hamda badiiy niyati shu qadar kengki, bu niyat o'z-o'zidan badiiy asar janrini ham tayin etishda ishtirok etadi. D.Quronov o'zining "Adabiyotshunoslikka kirish" nomli ilmiy kitobida muallif niyati tushunchasini ijodiy niyatga bog'laydi. Ya'ni muallifning dunyo moddiyatlarini o'ziga xos uslubda idrok etishi hamda ularni qog'ozga tushirishi ijodiy niyatning ijrosidir.

(D.Quronov. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent. 2019).

Xurshid Davron ijodiy konsepsiyasining markazida tarixga xolis yondashish vositasida Vatan va millat obrazini o'ziga xos tarzda ifodalash niyati turadi. Uning asarlarida bu so'zlar bot-bot takrorlanmaydi, lekin har bir satr, misra zahirida o'zbekning o'zligi, bu kunga qadar bosib o'tgan yo'li, xaqsizlik va zulmlar asrida ham dinini, o'zligini saqlab qola olgan ajdodlar va qadriyatlar timsoli bo'y ko'rsatib turaveradi. Bu zaruriyat ayniqsa, mamlakatimiz endi mustaqillikka erishgan kunlarda dolzarb masala o'laroq kun tartibiga ko'tarilgan edi.

Abdulla Qodiriyning "oltin qoida"siga ko'ra, ijodkor "moziyga qaytib ish ko'rdi", bu "qaytish"lar sirasida millat eshitmagan, tuymagan haqiqatlar gavhari bilan adabiyotni boyitdi.

"Sohibqiron nabirasi" qissasi faqatgina tarixning ma'lum davrini ochib berish uchun yozilgan asar emas, balki barcha xalqlar tarixida ro'y bergan, insoniyatga taalluqli bo'lgan o'nlab masala-yu muammolarni o'z ichiga qamrab olgan falsafiy asardir. Asarda "Vatan", "Millat" tushunchalarining birinchi planda olinishi, podshoh va zurriyodlari, toj-u taxt masalasi, aristokratlar va qora xalq munosabati, madaniyat, san'atga e'tibor kabi eskirmas masalalarni muallif badiiyat chechagiga o'rab kitobxonga taqdim etadi.

"Sohibqiron xira ko'zlarini amir Shohmalikka tikib, dona-dona qilib aytdi:

- Ulug'bek Mirzoni senga topshirg'onimni minba'd unutma...sen aning otalig'isan... Undan boxabar bo'!

Yana bir damdan keyin Amir Temur ikki safdoshiga qattiq tikildi:

- Bilaman valiaxdlik Shohruxga bo'lsin, deysiz!... Ammo valiaxdlik to'ng'ich o'g'il xonadonida bo'lsun demaganmi ota-bobolar?!

Shohmalik!... Nuriddin!... Boxabar bo'ling! Mabodo vasiyatimga xilof ishlar ro'y bersa, yo'l qo'ymangiz! Vasiyatimni buzg'on kim bo'lmasun, o'g'limmi, nabirammi jazolangiz! Illo, shunday qilmasangiz, barchangiz nes-nobudlik komiga tortilgaysiz! Bu so'zlarim yodingizda bo'lsin!" (X.Davron "Sohibqiron nabirasi")

Qissadan keltirilgan yuqoridagi parchadan ham bilishimiz mumkinki, Jahongir uchun ona yurtiga bo'lgan muhabbati cheksiz, uni hech bir narsa bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Chunki biz yuqorida o'lim to'shagida yotgan Jahongirning o'zini emas farzand va nevaralari haqida qayg'urishini, har birining kelajagi haqida otaliqlariga nasihat qilganini ko'ramiz, bundan ko'rinib turibdiki u jigarbandlarini jonidan ortiq ko'rgan. Ammo Vatanini, xalqini barchasidan ortiqroq sevganini muallif jonli, ishonarli qilib tasvirlagan. Bu bilan adib o'zining badiiy niyatini asarda to'laqonli ochib bergan. Vatan tarixini eski qo'lyozmalar, arxiv materiallari asosida o'rganish asnosida, uning naqadar qadimiy va shonli tuproq ekanini, bu zaminda aqlu salohiyati bilan dunyo tamadduniga hissa qo'shgan yuzlab olimlar bilan tanishdi va natijada MILLAT va VATAN obrazini ana shu jihatlarini yoritgan holda ifodalash niyatini dastur-ul amal qilib tanladi. Adib "Vatan" deganda, avvalo, odamlarni o'tgan ajdodlari va bugungi kun kishilari, kelgusi avlodlarni nazarda tutadi. Chunki Vatan faqat tuproqdan iborat emas. Vatan barcha ko'rinadigan va ko'rinmaydigan barcha narsalarni qamrab oladi. Har bir kishi uchun xalqi ham Vatanidir"

(A.Ulug'ov. Qalb qandili: adabiy-tanqidiy maqolalar. Adabiy portret. Adabiy-tanqidiy ocherk. Toshkent. Akademyashr. 2013).

Muallifning ushbu tarixiy qissasi haqqoniy voqelik fonida yaratilgan bo'lib, bunda o'quvchi tarixiy fakt va yozuvchining ijod mahoratini bir nafasda his qila oladi. Chunki asardagi barcha tarixiy haqiqatlar yozuvchining badiiy tafakkurida charxlanib, o'tkir qalamida sayqallanib, badiiy rang berilib o'quvchining faqatgina tafakkuriga emas, qalbining tub-tubiga yetib borib, uni cheksiz xayolot dunyosiga yetaklay oladigan tarzda yaratilgan deya olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.Mirziyoyev: "Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak" 19.01.2021. Aniq.uz sayti
2. A.Ulug'ov. Qalb qandili: adabiy-tanqidiy maqolalar. Adabiy portret. Adabiy-tanqidiy ocherk. – Toshkent: akademnashr, 2013.
3. X.Davron. Sohibqiron nabirasi. – Toshkent, 1995.
4. D.Quronov. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent, 2019.

Farhod QIYOMOV,
SHDPI o'qituvchisi

SA'DIY SHEROZIY—SHARQ ADABIYOTINING YIRIK VAKILI

Annotatsiya: maqolada Shayx Sa'diyning "Bo'ston" va "Guliston" asarlari bilan keng shuhrat qozongani, hamda uning ulug' shoir va adib ekanligi xususida ma'lumotlar yoritib berilgan.

Kalit so'zlari: "Bo'ston" va "Guliston" she'riy asar, nasriy-axloqiy, Sharq, G'arb, fors-tojik, Eron, adabiyot.

Аннотация: в статье освещены сведения о том, что шейх Саади получил широкую известность благодаря произведениям «Бостон» и «Гюлистан» и что он является великим поэтом и писателем.

Ключевые слова: поэтическое произведение «Бостон» и «Гюлистан», прозао-этическое, Восток, Запад, персидско-таджикское, Иран, литература.

Annotation: in the article, the information about the fact that Sheikh Saadi gained wide fame with the works "Boston" and "Gulistan" and that he is a great poet and writer is highlighted.

Key words: "Boston" and "Gulistan" poetic work, prose-ethical, East, West, Persian-Tajik, Iran, literature.

Xalqlar o'rtasidagi do'stlikning barqaror bo'lishi mamlakatlar o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqalarga bog'liqdir. Mamlakatlar o'rtasida aloqalar kuchli bo'lsa, tinchlik barqaror bo'ladi. O'zbek va tojik xalqlari o'rtasidagi do'stlikning rivojida adabiyotning xizmati katta bo'lgan.

Biz o'zbek adabiyoti tarixini, adabiyotini o'rganar ekanmiz, boy madaniy-adabiy an'analarga ega bo'lgan xalqimizning Sharqdagi ko'pgina qo'shni-qardosh xalqlar bilan yaqin aloqada bo'lib kelganliklarini ko'ramiz. Turli etnik qatlamlarga mansubliklaridan qat'iy nazar o'zbek, tojik, ozarbayjon va Sharqdagi qator boshqa xalqlar asrlar davomida deyarli bir-xil siyosiy-ijtimoiy sharoitda yashaganlar, ishlab chiqarishda birga qatnashganlar, zulm va zo'rlikka qarshi birgalashib bosh ko'targanlar. Bu xalqlar o'rtasidagi madaniy-adabiy aloqalar shu zaminda paydo bo'lgan va rivojlangan.

Sharq xalqlari o'rtalaridagi munosabatlar qardoshlik, vafodorlik asoslariga qurilgan bo'lib, bu xalqlarning bir-biriga yaqinlashuvi, o'rtada jonli

mushtarak bir madaniyat yaratishga yordam berib keldi. Xonlar, beklar o'rtasida butun o'rta asr davomida hukmron bo'lib kelgan qonli urushlar, nifoqlar xalqning ma'naviy jipsligiga rahna sololmadi.

O'zbek adabiyotining Sharqdagi ko'pgina adabiyotlar bilan yaqinligi o'zaro munosabatlar tarixida hamisha muhim jarayon sifatida ko'zga tashlanadi. O'rta Osiyo va Eronda mahalliy Somoniylar davlati vujudga kelgan davrdan boshlab fors-tojik tilidagi adabiyot keng ko'lamda taraqqiy qildi.

Fors-tojik tili o'sha davr ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayot taqozosiga ko'ra dastlab somoniylar, keyinchalik g'aznaviylar, saljuqiylar, qoraxoniylar ta'siri ostida bo'lgan keng territoriyada katta mavqega ega bo'ldi. Natijada faqat tojiklarning o'zlarigina emas, o'zbek, ozarbayjon, turkman, hatto hind adabiyoti namoyandalari ham o'z asarlarini shu tilda yaratdilar. Bu davr fors-tojik tilidagi adabiyot taraqqiyotida o'zbek, ozarbayjon va boshqa xalqlarning ham hissasi mavjud.

Shayx Muslihiddin Sa'diy Sheroziy fors-tojik mumtoz adabiyotining ulug' namoyondalaridan biridir.